

SHAHRI NUR TARIXI YOKI NUROTANING NURLI MOZIYSI

Ro‘ziyeva Tamara Shukurboyevna,
Xo‘jayeva Lobarxon Shuxratovna,
Muftullayeva Umida Tohirova
NavDPI Tarix fakulteti o‘qituvchilari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yer yuzining mashhur shaharlaridan bo‘lgan Nurota va uning nurli tarixi, unda yashagan buyuk ulamolar va ularning beqiyos xizmatlari haqidagi fikrlar tarixiy manbalar va adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarix, Buxoro, Nurota, vatan, zamin, ulamo, muqaddas, makon, manzil, Nur, Chashma.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются виды Нураты, одного из самых известных городов мира, и его яркая история, великие ученые, жившие в нем, и их несравненные заслуги, с использованием исторических источников и литературы.

Ключевые слова: история, Бухара, Нурага, родина, земля, ученый, святой, место, адрес, Весна.

ABSTRACT

This article analyzes the views of Nurata, one of the most famous cities in the world, and its vibrant history, the great scientists who lived in it, and their incomparable merits, using historical sources and literature.

Keywords: history, Bukhara, Nurata, homeland, land, scientist, saint, place, address, Light, Spring.

KIRISH

*Yer yuzida Buxoroday shahri azim bo‘lmasidan
iigari Nur sohilida hayot qaynagan.
A.B.Narshaxiy, "Buxoro tarixi"*

Ming yillik tariximiz sahifalariga Nur shahri nomi bilan muhrlangan Nurota vatanimizning muqaddas shaharlaridan bo‘lib, istiqlol sharofati bilan bugun uni butun dunyo taniydi. Abu Bakr Muhammad Ja’far Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida Nurato haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Nur katta va go‘zal joy, unda masjidi jome’ bor. U ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p mubolag‘a

qiladilar. Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan kishining fazilatlariga ega bo‘ladi. U ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havozaband qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda "Nuri Buxoro" deb ataydilar"¹.

Bu muqaddas makonga kirib borilar ekan, eng avvalo tog‘lar bag‘rida jo bo‘lgan qadimiylar qal’ani xarobalari ko‘zga tashlanadi. Ushbu qal’ani arxeolog olimlardan V. Nilson, Y. G‘ulomov, M. Rostovsevlar tekshirishgan. Akademik Y. G‘ulomov o‘z tekshirishlari natijasida Nur qal’asi tevaragi milodiy V-VI asrlarda uzun devor bilan o‘ralib, mahalliy xalq uni "Piyrasta", yoki "Tik devor" deb atashganini yozadi. Nur qal’asi o‘tmishda Jizzaxdan so‘ng Buxoro va Samarqandga kirishda ikkinchi darvoza vazifasini o‘tagan.

Tarixdan ma’lumki, Nurota o‘rta asrlarda o‘zining harbiy istehkomlari, ayniqsa Iskandar Zulqarnayn davrida qurilgan Nur qasri, masjidu madrasalari hamda korizlari (irrigatsiya inshootlari), qimmatbaho metallari bilan mashhur bo‘lgan. Buyuk tarixchi Gerodotning mashhur "Tarix" kitobida "Orol dengizidan Nurota tog‘larigacha bo‘lgan masofada temir, kumush kam, oltin, mis nihoyatda ko‘p", degan ma’lumotlarni uchratish mumkin.² Shu bilan birga shahar Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashganligi sababli eng go‘zal manzilgohlardan hisoblangan. Bu joy karvonlar to‘xtashi uchun eng qulay va bexavotir manzil bo‘lgan. Bundan anglashimiz mumkinki, bu yer yirik savdo markazi bo‘lib, bozorda qishloq xo‘jalik hunarmandchilik va chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilingan. Karvonlar bu yerlarda nafaqat savdo qilishgan, balki shifobaxsh chashma suvidan g‘amlab olib ketishgan. Ko‘hna va doimo navqiron Nurota shahri xususida ko‘plab rivoyatlar va afsonalar mavjud. Ularning deyarli barchasida nurotaliklarning muqaddas "Ka’ba"si hisoblanmish muqaddas chashma ulug‘langan. Chashmaning g‘aroyib va mo‘jizali qudrati oldida insoniyat lol qoladi. Chashma suvining rangsiz, hidsiz, yumshoq shirinligi, haroratining muttasil qishin-yozin bir xilda bo‘lishi (19,5 gradus), har daqiqada 360-400 litr sig‘imda qaynab chiqib turishi, sersuvligi, tarkibida turli shifobaxsh mikroelementlarning mavjudligi bir qator xastaliklarga shifodir³.

Chashmaning tip – tiniq zilol suvida suzib yurgan baliqlar ham inson ruhiyatiga yengillik baxsh etib, ko‘ngillarni ravshan torttiradi. Baliqlarni mahalliy xalq va sayohatchilar tabarruk deb bilishadi. Nurotadagi "Chashma" me’moriy majmua mo‘zeyi tarkibiga Nur chashmasi, Nur qal’asi, IV asr yodgorligi "Chilustun" jomesi, XVI asr yodgorligi "Panjvaqt", "Katta gumbaz" masjidi, muzey zallari, Shayx

¹ Narshaxiy. Buxoro tarixi. "Meros" turkumi. Toshkent., 1991. 95-bet.

² Hoshimov S. Turkistonning diplomaticheskie aloqalari tarixidan. "Fan va turmush". 1998. 2 – son.

³ Ismoilzoda Sh. Nurota qissasi. Qiziltepa. 2005. 3-bet.

Abdulhasan Nuriy maqbarasi, Nurgul binti Abulhasan qabri, Nurgulato qudug'i va madrasa hujralari kiradi.

Nurotaga ziyoratga keluvchilar albatta Shayx Abulhasan Nuriy maqbarasini ziyorat qilishadi. Hatto tarixiy manbalarda ham Shayx Abulhasan Nuriy maqbarasini ziyorat qilish uchun Nur shahriga borilishi ta'kidlanadi. Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarot ul quds" (Pok zotlar tomonidan esgan do'stlik shabodalari) asarida: "Shayx Abulhasan Nuriy az tabaqayi soniya hast. Shahri bud miyoni Hirot, Marv va Bag'dod ast. Bo Sirri Satsatiy, Muhammad Ali Qasso, Muhammad Abu-al Havoriy suhbatdosht va Zunnun Misriyro diyda bud", degan ma'lumotlar keltiriladi.⁴

Mazmuni: "Shayx Abulhasan Nuriy so'nggi tabaqadan bo'ladi. Uning shahri Hirot, Marv, Bag'dod shaharlari oralig'ida. U Sirri Satsatiy, Muhammad Ali Qasso, Muhammad Abu-al Havoriylar suhbatida bo'lgan va Zunnun Musriyroni ham ko'rgan".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fikrimizcha, Nurota – muqaddas qadamjoy, ziyoratgoh makondir. Chunki u yerda juda ko'p avliyolar dafn etilgan. Buni tarixiy manbalar va adabiyotlar ham tasdiqlaydi. Shuningdek tarixiy manbalar va adabiyotlarning guvohlik berishicha, Nurota ijtimoiy – siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan, Shayx va ulamolari bilan mashhur bo'lgan maskandir. Nuratolik tabarruk allomalar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, "Buxoro" nashriyotida 1999 yili Hazrat Imom al – Buxoriy tavalludining 1225 yillik muborak to'ylariga bag'ishlab, O'zbekiston musulmonlari idorasining Buxoro viloyatidagi vakili "Masjidi Kalon" jome' masjidi imom-xatibi, Mir Arab madrasasi mudarrisi Abdulg'affor Razzoq tomonidan Abdulkarim As-Sam'oniyning VIII-XII asrlarda yashagan buxorolik olimlar haqida boy ma'lumotlar beruvchi "Al-Ansob" ("Nasabnama") risolasi nashrga tayyorlanib, chop etildi. Mazkur tarixiy manba ancha qadimiylar bo'lib, VIII – XII asrlar xususida so'z yuritilgan. Buni jurnalist Suyundik Mustafoev shunday izohlaydi: "Muallif Imom Abdulkarim as-Sam'oni ham XII asrda yashab o'tganlar. Diqqatga sazovor joyi shundaki, risolada qisqacha tafsilot berilgan barcha ulamolar Buxoroga (Buxoro shahri, bekliklari, bekliklarga qarashli qishloqlar, shu jumladan hozirgi Navoiy viloyati shahar va qishloqlari) dohil ekanligiga ishora etiladi"⁵. Muallif o'z maqolasida risolada ta'rif berilgan Nurotalik

⁴ Ismoilzoda Sh. Nurato qissasi. Qiziltepa. 2005. 3-bet.

⁵ Mustafoev S. Nuratolik ulamolar Quyi Zarafshon vohasi. Tarix va hozirgi zamон mavzuidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Toshkent., "Fan". 2005. 97-bet.

ulamolar haqidagi ma'lumotlarni keltirgan. Ushbu ma'lumotni biz ham batafsil keltirishni joiz deb topdik.

1. Al – Jijoriy – Buxoroning Nurota nohiyasidagi Sijor qishlog'i. Abumusoyib Solih ibn Muhammad Jijoriydirilar⁶.

2. Az Zushiy – Buxoro qishloqlaridan (hozirgi Jo'sh – Nurota yaqinidagi qishloqdir) va Nur qal'asi yaqinidagi Abu Bakr Muhammad ibn Abus – Sayyir Sumoriyaz – Zushiy, an Nuriy, Abu hafs Umar Nasafiy shu zot shogirlaridurlar. Demak, an Nuriy (Abul Hasan Nuriy) shu kishining shogirdi⁷.

3. As – Sirojiy – Buxorodan 20 farsax uzoqlikdagi Nur qishlog'i. Hozirgi Nurota Jidor deb atalgan. (Tarjimon izohi). Abu Shuayb Soli ibn Muhammad Sijoriy ulug' Nuriy, Abu Shuayb Solih ibn Muhammad Sijoriy ulug' shayx solih, zohil, fozil edilar. 404 (1014) Hijriy yilda Buxoroda vafot etganlar⁸.

4. An-Nuriy – Nur Buxoro va Samarcand o'rtasidagi kichkina shaharchadur. Tog' yonida ko'p mozorlari bordur, kishilar ko'p ziyyaratga borurlar. Ali ibn Mustida an – Nuriy, Abu shuayb Solih ibn Muhammad Sijoriy an-Nuriy(sijor va Nur o'rtasidagi masofa bir farsaxdir)⁹.

5. Al-hakim Abu Nasr Ahmad ibn Ja'far an-Nuriy. Ul zot o'g'illari al-hakim Muhammad ibn Ahmad an – Nuriy Abu Ali Hasan ibn Ali qozi Nuriy 451 (1060) Hijriy yilda tug'ilgan. 518 (1125) hijriy yil jumodil-avval oyida vafot etganlar.¹⁰

6. Abu Muso Imron ibn Abdullo an-Nuriy al-Hofiz (yuz mingdan ortiq hadisni yoddan bilgan) Abu Hafsi Kabir va Muhammad ibn Salom Paykandiyning ustozlaridandurlar¹¹.

7. Abu Muqtol Ahmad ibn Muhammad an-Nuriy. Buxoro ulamolaridan ta'lim olganlar va ul kishi she'riy risola – amoliylar aytib turganlar va shogirdlari yozib olganlar. 417 (1027) hijriy yil rajab oyida vafot etganlar¹².

8. Abul hasan Muhammad ibn Muhammad an-Nuriy ulug' mashoyixlardan. Yuzlaridan nur tovlanib turgani uchun Nuriy deb laqab berilgandur. (SHul zot sharaflariga Nurota deb atalgan)¹³.

9. Al Husayn Ahmad ibn Muhammad an-Nuriy Abul qosim Ubaydullo ibn Muhammadan-Nuriy 380 (991) Xijriy yil rab yo'l avval oyida vafot etganlar¹⁴.

⁶ Abdulkarim as – Sam'oniy. "Al - ansob". Nasabnama. "Buxoro" nashriyoti. 1999. 11 – bet.

⁷ Osha asar. 15 – bet.

⁸ O'sha asar. 16 – bet.

⁹ O'sha asar. 34 – bet.

¹⁰ Abdulkarim as – Sam'oniy. "Al - ansob". Nasabnama. "Buxoro" nashriyoti. 1999. 11 – bet.

¹¹ O'sha asar. 35 – bet.

¹² O'sha asar. 35 – bet.

¹³ O'sha asar. 35 – bet.

Demak "Al-Ansob" ("Nasabnoma")ga ko'ra unda ko'hna Nur zaminida umrguzaronlik qilgan juda bisyor ulamolar haqidagi qimmatli ma'lumotlar zikr etilgandir. Shularning ba'zilari haqidagi ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik.

Shayx Abul Hasan Nuriy

Shayx Abul Hasan Nuriy islam olamida mashhur bo'lgan ko'plab avliyolar qatorida turgan allomalardan biridir. Avliyolar Allohg'a yaqin kishilar bo'lib, insonlar va xudolar o'rtasidagi vositachidirlar. Shayx Abul Hasan Nuriy ham Allohnинг yagonaligini tan olib, uning ziyyaratiga kelganlarga ruhiy kuch – quvvat va nur berar ekanlar.

Nuriy bobo haqida tarixiy adabiyotlarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. Tarixiy manbalardan A.Jomiyning "Nafaxotul-uns min hazarotul quds" ("Pok zotlar tomonidan do'stlik shabadalari") tazkirasida Shayx Abul Hasan Nuriy 616 ta donishmandning, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida 770 donishmandning biri sifatida tilga olingan. Ma'lumotlar fors-tojik tilida berilgan. Nuortalik havaskor o'lkashunos Shavkat Ismoilzodaning "Sudur bobo yoxud Nurato tarixidan sahifalar" risolasida Shayx Abul Hasan Nuriy haqidagi xuddi shu ma'lumot keltirilgan. Unda shunday deyilgan: "Shayx Abul Hasan Nuriy az tabaqai soniya ast. Nomi vaz Amad ibn Muhammad va kunniyat Muhammad bin Muhammad ast. Shahri bud miyoni Hirot va Marv va Bag'dod ast. Bo Siriy Sakatiy va Muhammad Ali Kassob va Muhammad Abul Havoriy suhbat doshta Zunnun Misriyro dilda bud".

Mazmuni: Shayx Abul Hasan Nuriy keyingi tabaqadan bo'lib, uning asli ismi Ahmad ibn Muhammad. U Hirot, Marv, Bag'dod orasidagi shaharda yashagan va yuqorida nomlari islam olamida mashhur bo'lgan ahli donishlar bilan suhbatlashgan va ko'rishgan"¹⁴.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Nuriyning doimo tasbeh o'girib o'tirishlari haqida shunday ma'lumotlar keltirilgan: "Nuriy doim tasbeh evurur erdi. Andin so'rdilarkim, /Allohn zikr qilasanmi?/ Dedilar: bu tasbeh bila tilarsenki, Allohu taolo sening yodingda bo'lg'ay? Dedi: Bu tasbeh bila tilarmenki, Haqdin g'ofil bo'lg'aymen. Va ham aning so'zidurkim, / ubudiyat (bandalik)ning sofligi seni mag'rur qilmasinki, unda rububiyat (rabboniylig)ni unutish bordir/. Andin so'rdilarki, Tangrining ne bila taniding? Dedi: Tengri bila! Dedilarki, Bas aql nedur? Dedi: Aql ojizdur, yo'l ko'rsatmas, magar ojizga. Va ul debdurkim, /Haq kimdan o'zini yashirsa, har qanday ishonchli dalil va xabar uni hidoyat qilolmaydi/. Va ham

¹⁴ O'sha asar. 35 – bet.

¹⁵ Ismoilzoda Sh.Nurato qissasi.Qiziltepa.2005.68-bet.

ul debdurkim, /bir kun nurga boqdim va undan aslo ko‘zimni uzmadim, hatto shu nurga aylandim/”¹⁶

Shayx Abul Hasan Nuriy haqida yana Fariddidin Attorning "Tazkirat ul - avliyo" asaridagi ma'lumotlarda ham avliyoning alohida fazilatlari, ilmu ma'rifatda olib borgan xizmatlari haqidagi fikrlar keltirilgan. Asardagi bu ma'lumotlar nurotalik hoji Ahmadqul Hazratov ko‘magida o‘rganilgan. Unda shunday deyilgan:

Abul Hasaniy Nuriy yagonayi vaqt uro «Amiral kulub » guftandi va «Kamar – ul sufiya» xondandi, muridi Siriy Sakatiy bud, suhbati Ahmada Xavoriy yofta va az akroni junayd budand. Tariki mujtaxid va sohibi mazhab bud. Qoida mazhabash on astki tasavvufro bar faqir tafzil nihad. Muomilatash muvofiqi junayd.

Uro nuri azon guftanki chun dar shabi torik suhan.

Gufti nuri az daxoni u – berun omadi chunonki xona ravshan shudi niz azonash guftandi nuri ba nuri farosatash az asrori botin xabar doda, digar az jihatni onash guftandki, uro summa bud dar sahroki hama shab onjo namoz kardi xalq onjoba nazdik shudandi, didanki nur az onjo miduraxshad bar bolo.

Mazmuni: Shayx Abul Hasan Nuriy "Amiral-kulub" deya ulug‘langan. Ul "Kamar-ul sufiya"ni o‘qigan va Siriy Sakatiyning shogirdi bo‘lgan, Ahmad Havoriy bilan suhbatlashgan. Donishmand va islom ilmining sohibi bo‘lgan. Shayx Abul Hasan Nuriy tasavvuf ilmini faqirlarga o‘rgatgan, faqirlarni ilmli qilishni o‘zi uchun qoida deb bilgan. U kishining amru ma’ruflari va va’zlari, hattoki qorong‘u kechaga nur bag‘ishlab, og‘izlaridan chiqhayotgan suxanlari go‘yo nurdek qorong‘u uyni yoritgan. Og‘izlaridan chiqqan nur nurga ulanardi va va’z nasihatlari nur orqali tevarak-atrofga taralardi. Yana bir xil kishilar aytdilarki, u kishi namoz o‘qiyotgan paytalarida porlagan nurni sahrodagilar ham ko‘rdilar¹⁷.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Shayx Abul Hasan Nuriy o‘zi yashagan makonda insonlar orasida islom madaniyatini tarqatishda beqiyos xizmat qilgan. Shayx Nuriy payg‘ambar avlodi – sayyid avlod vakillaridandir. Avliyoning "Nuriy" taxallusi shaharga nisbat, Shayx esa o‘sha davrda olim, donishmand insonlar nomiga qo‘shib aytilgan.

Xullas, nurotalik bobokalonimiz Shayx Abul Hasan Nuriy islom olamida ma'lum va mashhur bo‘lgan juda ko‘plab avliyolar qatorida turgan buyuk allomadir.

¹⁶ A.Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. XVII tom. Toshkent. 2001. 60-bet

¹⁷ Ismoilzoda Sh. Nurato qissasi. Qiziltepa . 2005 yil. 68-bet.

Nuriy bobomiz Allohning yagonaligini butun jonusi tani bilan tan olgan Shayx bo‘lib, uning ziyyaratiga kelganlarga doimo kuch-quvvat berib turganlar.

Shayx Abul Hasan Rumiy haqiqatdan ham ko‘hha Nurota yurtimizning, qolaversa xalqimizning bebaho durdonasidir. Undagi yana bir ziyyaratgoh – Shayx Abul Hasan Rumiy xonaqohidir. Ushbu ziyyaratgoh tarixi, Shayx Abul Hasan Rumiy hayotlari to‘liq o‘rganilmagan. Nurli shahar Nuratoni va uning muborak ziyyaratgohlarini ziyyarat qilish maqsadida Nuratoga qilgan safarimiz chog‘ida Shayx Abul Hasan Rumiy Hazratlarining ham xokipoylarini ziyyarat qilishga musharraf bo‘ldik. Ziyyaratgoh unchalik ulkan va dabdabali bo‘lmasa-da, go‘yoki Shayxning ruhlari kezib yurib, bu yerda qandaydir siru-sinoatlar yashiringanini bildirib turadi.

Shayx Abul Hasan Rumiy qabrlari ustidagi oq marmarga fors-tojik tilida yozilgan bitikka nazar tashlansa, ul kishining buyuk zotlardan bo‘lib, Shayx Abul Hasan Nuriy bilan bir davrda yashaganliklarini bilish mumkin. Unda shunday so‘zlar bitilgan:

"Shayx Abul Hasan Rumiy. Dar tarix sanai 28 mohi zulq’ada 232 sol tavallud yofstand. 61 sol umr dida 24 mohi rajab 293 sol az dorul ba dorul baqo rexlag namudand."

Mazmuni: Shayx Abul Hasan Rumiy zulq’ada (Noyabr) oyining 28 kunida 232 hijriy yilda tug‘ilib, 61 yil umr ko‘rib, Rajab (Avgust) oyining 24 kunida 293 yilda foniy dunyodan boqiy dunyoga rixlat qildilar. Bu esa milodiy yilda Shayx Abul Hasan Rumiyning 846-847 yillarda tug‘ilib, 906-907 yillarda vafot etganliklarini bildiradi.

Xullas, Nurli Nuroata tarixi boy merosga ega bo‘lgan makon hisoblanadi. Uni ilmiy jihatdan o‘rganish va yosh avlodga qoldirish dolzarb masala hisoblanadi.

REFERENCES

1. Narshaxiy. Buxoro tarixi. "Meros" turkumi. Toshkent., 1991.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. XVII tom. Toshkent. 2001.
3. Ismoilzoda Sh. Nurato qissasi. Qiziltepa . 2005 yil.
4. Mustafoev S. Nuratolik ulamolar Quyi Zarafshon vohasi. Tarix va hozirgi zamon mavzuidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Toshkent., "Fan". 2005.
5. Abdulkarim as – Sam’oni. “Al - ansob”. Nasabnama. “Buxoro” nashriyoti. 1999.
6. Hoshimov S. Turkistonning diplomatic aloqalari tarixidan. “Fan va turmush”. 1998.